

## MAMLAKATIMIZDA SPORTGA E‘TIBOR: PARADZYUDO SPORTI VA YUTUQLAR

**Ergashev Begzod Murodovich**

*Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani*

*68-umumiy o‘rta ta’lim maktabi*

*jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu ilmiy maqolada mamlakatimizda sportga e‘tibor, sport turlari, dyuzdo va paradyudo sport musobaqalari, ushbu sohada erishilgan yutuqlar, barkamol avlod tarbiyasida paradyudoning ahamiyati haqida so‘z boradi.*

*Ushbu maqolani yozishdan maqsad: yosh avlodni dyuzdo sport turiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, paradyudo musobaqalarida faol ishtirok etishga undash.*

**Natija:** *yurtimizda sport sohasida yaratilgan e‘tibordan unumli foydalangan holda paradyudo sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishiladi, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tanitib, yurtimiz bayrog‘ini baland tutgan holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga erishiladi.*

*Kalit so‘zlar: dyuzdo, paradyudo, sport musobaqalari, yutuqlar, sog‘lom avlod...*

**Abstract:** *this scientific article talks about attention to sports in our country, types of sports, judo and parajudo sports competitions, achievements in this field, the importance of parajudo in raising a mature generation.*

*The purpose of writing this article: to increase the interest of the young generation in judo sport, to encourage active participation in parajudo competitions.*

*The result: using the attention created in the field of sports in our country, high results will be achieved in parajudo sports competitions, the name of Uzbekistan will be known to the whole world, and education will be achieved in the spirit of patriotism while holding the flag of our country high.*

**Key words:** *judo, parajudo, sports competitions, achievements, healthy generation...*

Bugungi kunda mamlakatimizda sport siyosati muhim va dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi ayni haqiqat. Bu borada hukumatimiz va shaxsan davlatimiz rahbarining tashabbuslari katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Zero, Yangi O‘zbekistonda mazkur soha ommaviy xarakter kasb etib, yoshlarga oid siyosati va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ajralmas qismi sifatida rivojlandi. Keling, shu o‘rinda sport musobalari, ularning ahamiyati xususida so‘z yuritamiz. Demak, sport musobaqalari - his-hayajon holatidagi ko‘rinishda bo‘lib hozirgi kunda 100 dan ortiq sport turi bo‘yicha musobaqa o‘tkaziladi. Har qaysi sport turi, musobaqa o‘tkazish uchun o‘zining metodik xususiyati, qatnashish sharti, o‘tkazish qoidasi va g‘oliblarni aniqlash va boshqa talab qiladi. Musobaqa qisman, sportchini tayyorlash tizimiga kiradi, chunki faqatgina shaxsiy sport tayyorgarligiga ega bo‘lmasdan, ijtimoiy vazifalarni hisobga olgan (targ‘ibot, ko‘rgazmalilik) holda ham tashkil qilinadi. Sport musobaqasi - o‘yin shaklida raqobat qilish shakli bo‘lib, jismoniy tayyorgarligi, harakat malakasi va mashqlarni bajarish san‘ati yoki o‘ylash va tafakkur qilishni rivojlantirishni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Jumladan, paradyudo sport musobaqalari ham zamonaviy dzyudochilar tayyorlash tizimi yuqori darjadagi nazariy va amaliy bilimlar hamda tajribalardan xabardor bo‘lish va ularni amaliyotda

samarali qo‘llashni muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Ilg‘or tajriba natijalari va yetakchi tayyorgarlik uslublaridan foydalanmasdan yuqori sport natijalariga erishish tobora qiyinlashib borayotganligi sport jamoatchiligi tomonidan e‘tirof etilmoqda.



Bugungi kunda aksariyat ommaviy sport turlarida mashg‘ulotlar tashkil etish, sportchini tayyorlashning turli uslub va vositalaridan samarali foydalanish hamda tayyorgarlik jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish masalasiga alohida ahamiyat qaratilayotganligi ma‘lum. Mazkur masala ilmiy muammo sifatida sport nazariyasi oldiga yangi va murakkab vazifalar qo‘ymoqda. Bu jarayon barcha sport turlari kabi dzyudoda ham o‘z aksini topayotganligini alohida ta‘kidlab o‘tmoqchimiz. Dzyudochilar tayyorlash tizimi va uning bugungi tendensiyasi mazkur soha doirasidagi mutaxassislarni qiziqtirishi (murabbiylar, sportchilar, hakamlar, tadqiqotchilar va boshqalar) tabiiy, albatta. Chunki mazkur masala dunyo miqyosida turli darajada rivojlangan va mutaxassislar nuqtai nazarida turlicha talqin qilinmoqda. Kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, musobaqalar sonining ortib borishi tayyorgarlik jarayonini samarali yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Har bir musobaqa uchun alohida tayyorgarlik va sport formasini shakllantirish masalasi hal etilishi kerak. Shuni qayd etish kerakki, bundan 10-15 yil oldingi sportchilar tayyorgarlash tizimi tubdan o‘zgardi. Bizning fikrimizcha, bunga sabab qilib musobaqalar sonining ortib borishini ko‘rsatish mumkin. Ushbu faktor bevosita dzyudoning ommalashishi natijasida yuzaga kelib, uning tomoshabopligi ortishi va musobaqalar kalendar rejasiga ko‘proq musobaqalarni joylashtirish zaruratini ko‘rsatdi. Natijada endilikda dzyudochilar yillik siklda ilgariyidan ko‘proq bahslarda ishtirok etishiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur masalaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, dzyudochilar tayyorlashning zamonaviy tizimi haqidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish va uning rivojlanish tendensiyasini tavsiflash mazkur sohaga doir qimmatli ma‘lumotlardan habardor bo‘lish imkonini beradi. Musoba oldi tayyorgarlik masalasining samarali hal etilishi bevosita sport natijalarining o‘sishi va sportchi yutuqlarining kengayishi bilan ahamiyatlidir. Har bir musobaqa alohida yondashuv va e‘tibor asosida tashkil etilgan sharoitda sport formasini muntazam saqlab turish maqsadiga erishi mumkin.



Dzyudoni rivojlantirish va xalqaro arenalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qila oladigan dzyudochilar tayyorlash borasida yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Ayniqsa so‘nggi yillarda sportni yanada rivojlantirish va ommalashtirish, sport sohasida boshqaruv tizimini isloh qilish yangi bosqichga olib chiqildi. O‘zbekistonda dzyudo 1972-yilda, ya‘ni O‘zbekiston Davlat sportqo‘mning dzyudoni rivojlantirish to‘g‘risidagi buyrug‘i asosida tashkil etish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tarixiy xujjatda respublikada dzyudoni rivojlantirishning batafsil rejasi bayon qilingan edi. Yuqoridagi buyruq tashabbuskor guruhning Xalqaro Dzyudo Federatsiyasi vakillari bilan birgalikda o‘tkazilgan katta tayyorgarlik ishlarining mantiqiy yakuni bo‘ldi. Dzyudocholar tayyorlash muammosi uzoq yillardan buyon keng ilmiy jamoatchilik tomonidan o‘rganilib kelinayotgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungacha ko‘plab ilmiyuslubiy ishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Shunga qaramasdan dzyudoni o‘rgatish va o‘qitish masalasi dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Shu o‘rinda yurtimiz paradyudochilarining yutuqlarini ta‘kidlab o‘tmoqchiman. 2021-yilning may oyida o‘tkazilgan musobaqalarda O‘zbekistonlik para-dzyudochilar Bokuda 10 ta Gran-pri medallarini qo‘lga kiritishdi. Para-dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi Boku shahridagi Gran-pri musobaqasida 10 ta medalni qo‘lga kiritdi va umumjamoa hisobida 2-o‘rinni egalladi. 25–26 may kunlari Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida para-dzyudo bo‘yicha Tokio-2020 yozgi Paralimpiya o‘yinlariga muhim reyting ochkolarini beruvchi Gran-pri musobaqasi bo‘lib o‘tgan edi. Musobaqaning dastlabki kunida o‘zbekistonlik para-dzyudochilar 5 ta medalga sazovor bo‘lishdi.



Ikkinchi kun dasturida O‘zbekiston terma jamoasi yana 4 ta medalni qo‘lga kiritdi. Jumladan, erkaklar o‘rtasida-81 kg vazn toifasida Davurxon Karomatov va +100 kg vazn toifasida Shirin Sharipov oltin, -100 kg vazn toifasida Sulaymon Alayev hamda Sharif Halilov bronza medallariga ega chiqishdi. Dastlabki kungi bahslarda ayollar o‘rtasida Lobar Xurramova (-48 kg), Sevinch Salayeva (-52 kg) va Parvina Samandarova (-57), erkaklar o‘rtasida Sherzod Namozov (-60 kg) va O‘tkir Nig‘matov (-66 kg) kumush medalga sazovor bo‘lishdi. -66 kg vazn toifasida tatamiga ko‘tarilgan Uchqun Quranbayev esa bronza bilan taqdirlandi. Gran-Pri yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston paradyudo terma jamoasi 2 ta oltin, 5 ta kumush va 3 ta bronza medali bilan 38 ta mamlakat orasida umumjamoa hisobida 2-o‘rinni egalladi va qalbimizni g‘ururga to‘ldirdi.

Xullas, barcha sport turlari kabi paradyuzdo sporti musobalari ham yurtimiz nomini dunyoga tanitishda o‘z hissasini qo‘shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Dyuzdo sporti tarixi.S.Hasanov. 2020-yil.
- 2.O‘zbekiston Milliy axborot agentligi ma’lumotlari.
- 3.Internet saytlari va ma’lumotlari.